

TARIXDA MAG'LUBIYATGA UCHRAMAGAN IKKI HUKMDOR

Uktamova Dilnura Xusniddin qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixning ikki buyuk sarkardasi – Chingizxon va Amir Temurning harbiy strategiyalari, siyosiy boshqaruv uslubi va dunyo tarixiga ta'siri yoritiladi. Bundan tashqari ikki hukmdorning boshqaruv uslublaridagi o'xshashliklari va farqli jihatlari ham tahlil qilinadi. Nima uchun ikki hukmdor halokatli yirik mag'lubiyatga uchramaganligi asoslab beriladi. Ularning siyosati va harbiy yurishlari keying asrlarda ham davlat boshqaruvi va urush taktikalari uchun muhim namuna bo'lib qolgan. Har ikki hukmdor o'z davrida tengsiz sarkarda sifatida tan olingan.*

Kalit so'zlar: *hukmdorlik, strategiya, harbiy yurishlar, boshqaruv, armiya, intizom.*

Tarix davomida insoniyat har doim kuchli boshqaruvchilarga ehtiyoj sezgan. Hukmdorlik – bu nafaqat taxt va toj bilan cheklanadigan mavqe, balki xalq taqdirini belgilovchi buyuk mas'uliyatdir. Qudrat esa faqat harbiy g'alabalardan iborat bo'lmay, balki strategik fikrlash, siyosiy mahorat va davlatni barqaror ushlab turish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Nega ayrim hukmdorlar tarix sahifalarida unutilib ketadi, boshqalari esa asrlar davomida buyuklik ramzi bo'lib qoladi? Buyuk hukmdorlar nafaqat o'z zamonida dunyo taqdirini belgilagan balki asrlar davomida tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirgan. Ularning qarorlari imperiyalarni yaratgan, madaniyatlarni shakllantirganva xalqaro munosabatlarga asos solgan. Kimdir shiddatli yurishlari bilan dunyoni larzaga solgan bo'lsa, boshqalar diplomatiya va qonunlar orqali davlatini mustahkamlashga harakat qilgan.

Shunday ekan, qaysi hukmdorlar tarix sahnasida eng qudratlilar qatoriga kiradi? Ularning siyosati qanday edi va qanday omillar ularni tarixda unutilmas shaxsga aylantirdi? Quyida dunyoni titratgan eng buyuk hukmdorlarning boshqaruv usullari va ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Chingizxon – dunyo tarixidagi eng qudratli harbiy liderlardan bo'lgan. Asl ismi Temuchin bo'lgan bu hukmdor mo'g'ul qabilalari orasidagi urushlarda g'olib chiqadi. 1206 – yili Onon daryosi bo'yida u ulug' xon deb e'lon qilinadi. Temuchinga Chingizxon unvoni beriladi. Chingizxon so'zi “kuchli”, “toza” ma'nolarini anglatadi.

Boshqaruv uslubi markazlashgan harbiy boshqaruv va meritokratiya ya'ni qarindoshlik yoki zodagonlik emas, balki layoqat asosida odamlarni lavozimga tayinlash tizimi bo'lgan Chingizxon mo'g'ullarni tartibli va intizomli armiyaga aylantirdi. Uning armiyasi o'nlik tizim asosida tashkil qilingan: 10 kishi – bir bo'linma (aravt), 100 kishi – otryad (zuut), 1000 kishi – polk (minglik), 10 000 kishi – diviziya (tumen). Ushbu harbiy bo'linmalar o'zaro mustaqil harakatlana olgan va buyruqlarni tez bajarishga qodir bo'lgan.

Chingizxon jangga kirishdan oldin dushmani uzoq vaqt kuzatib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlardi. Bu unga dushmanlar harakatini oldindan taxmin qilishga va shunga mos ravishda strategiya tuzishga yordam bergan. Hozirgi davlatlarda intizom eng muhim omil

bo'lgani kabi Chingizxon uchun ham qattiq intizom va sodiqlik muhim o'rin tutgan. Masalan, jang paytida qochgan askarlar qattiq jazolangan yoki harbiy harakatlarda ishtirok etmagan va buyruqlarga bo'ysunmaganlar o'lim jazosiga hukm qilingan.

Bizga ma'lumki, ko'p hukmdorlar bosib olingan hududlardan katta o'ljalari olishgan. Chingizxon bunday o'ljalarni barcha askarlarga teng taqsimlagan va bu bilan armiyaning sodiqligini oshirgan. Tartib – intizomni doimiy saqlash uchun “Yasa” nomli qonunlar tizimini joriy qilgan. Kuchli boshqaruv sababli uning imperiyasi shiddat bilan kengaydi va Yevropadan Osiyogacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga oldi.

Chingizxon umr bo'yi ko'plab janglarda g'alaba qozongan va hech qachon to'liq mag'lubiyatga uchramagan. Lekin uning yurishlari davomida Xorazmshohlar davlati boshqaruvchisi Jaloliddin Manguberdi, Sya davlati imperatorlari Lixian va Mojilyan, Goryeo davlati qiroli Gojong kabi hukmdorlar qudratli mo'g'ul armiyasiga juda jiddiy va uzoq vaqt kuchli qarshiliklar ko'rsatib kurashgan, ular ba'zan Chingizxonni chekinishga ham majbur qilishgan, ammo oxir-oqibat ular yengilishgan. Mo'g'ullar imperiyasi bir kunda qulamagan, balki asta-sekin XIV - XV asrlarga kelib yo'q bo'lgan.

Chingizxon o'limidan keyin imperiyani boshqarish bo'yicha kelib chiqqan ichki nizolar va kurashlar sababli to'rt qismga (Buyuk mo'g'ul xonligi, Oltin O'rda, Chig'atoy ulusi, Ilxoniylar davlati) bo'linib ketgan va bu qismlardan Chig'atoy ulusini yana bir buyuk hukmdorlardan biri Amir Temur yengib, mo'g'ullar ta'sirini yo'q qilgan.

Harbiy daho va qattiq tartib asoschisi Amir Temur barlos urug'idan bo'lib, Markaziy Osiyoda kuchli davlat barpo etgan. Amir Temur dunyoning eng buyuk strateglaridan biri sifatida tanilgan. O'z davlatini mustahkamlash uchun qat'iy markazlashgan boshqaruv tizimini joriy qilgan. Davlatning markazi dunyoga mashhur Samarqand bo'lib, Temur tomonidan imperiyaning iqtisodiy va madaniy yuragi sifatida rivojlantirilgan. Mamlakat viloyatlarga bo'lingan va har bir viloyatning hokimi bevosita Amir Temurga bo'ysungan.

Harbiy va fuqarolik boshqaruvi alohida ajratilgan, bu tizim korrupsiyaning oldini olgan. Chingizxon yuritgan tizim kabi Amir Temur meritokratiya ya'ni lavozimlarni faqat malakali va sadoqatli kishilarga berish tamoyili bilan ishlagan. No'larga (mahalliy boshqaruvchilar) ham qat'iy talablar qo'yilgan – ular soliq yig'ish, ichki tartibni saqlash va harbiy xizmatni ta'minlashi kerak edi. Amir Temur og'ir soliqlar emas, aksincha, savdogarlar va dehqonlarga imtiyozlar bergan va shu tufayli Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo rivojlangan. Amir Temur Islom dinini davlat siyosatining asosiy tayanchlaridan biri sifatida ko'rgan, lekin u diniy bag'rikenglikni ham saqlagan. U olimlar, ulamolar va san'atkorlarni qo'llab-quvvatlagan, bu esa Samarqand va Buxoroda ilmni kuchli rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Ilmga e'tibor bilan barobar holda u o'z davrining eng kuchli armiyasini ham yaratgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik, minglik va tumanlik tizimida tashkil etilgan va qo'shin ichida xiyonatni og'ir jazolagan. Harbiy yurishlar oldindan yaxshi rejalashtirilgan va ta'minot yaxshi yo'lga qo'yilgan. Temur qal'alarni egallashda qal'a muhandisligini rivojlantirgan va ilg'or texnikalardan foydalangan. U birdaniga shaharlarga hujum qilmagan, shahar bo'ysunsa avf qilgan, aks holda keyin hujum boshlagan. Umuman olganda harbiy strategiyasi razvedka,

davlatlarning ichki nizolaridan kelib chiqib bo'lib tashlash taktikasi va tezkor harakat qilish bo'lgan. Siyosatni o'zining "Temur tuzuklari" orqali yuritgan. Boshqaruv tizimida konstitutsiya kabi asosiy hujjat sifatida xizmat qilgan "Temur tuzuklari"da hukmdorlik tamoyillari, harbiy yurishlar strategiyasi, soliq va iqtisodiy boshqaruv, odob-axloq qoidalari va davlat mulozimlari uchun qoidalar yozilgan,

Amir Temur nafaqat mo'g'ullarning Chig'atoy ulusini yo'q qilgan, balki mo'g'ullar boshqaruv tizimidan saboq olib, undan mukammalroq davlat yaratgan. Amir Temur davlati sharqda Mo'g'uliston chegaralaridan, g'arbda O'rta Yer dengizi yaqinigacha, janubda Hindiston va Fors ko'rfazidan, shimolda Oltin O'rda hududlarigacha bo'lgan ulkan yerlarni o'z ichiga olgan. Bu hududlar taxminan 9 million kvadrat kilometr maydonni tashkil etgan. U faqat zabt etuvchi emas, balki davlat quruvchi, madaniyat homiysi va adolat targ'ibotchisi sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirdi. Uning harbiy yurishlari va siyosati bugungi kunda ham o'rganilib, strategiya va boshqaruv namunasiga aylangan. Shubhasiz, u jahon tarixining eng buyuk shaxslaridan biri.